



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlik tizimini takomillashtirish

Baratov Baxtiyor Kadirovich –

Farg'ona davlat universiteti dotsent,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: FarDU_mm@bimm.uz

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-9771-123X>

Habibuddinova Moxlaroyim Akmaljon qizi –

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

E-mail: adxamjonovamoxlaroyim001@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlik tizimini takomillashtirish masalalari nazariy-tahliliy jihatdan ko'rib chiqilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy tajriba va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida MTT boshqaruvida ota-onalar ishtirokining mavjud holati baholangan hamda hamkorlikni kuchaytirishning ilmiy-amaliy yo'llari asoslab berilgan. Ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarni boshqaruv jarayoniga tizimli jalb etish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Maqolada Epstein hamkorlik modeli va Bronfenbrenner ekologik tizimlar nazariyasi asosida to'rt komponentli hamkorlik modeli (muloqot, ishtirok, qarorga ta'sir, sheriklik) ishlab chiqilgan va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, boshqaruv, ota-onalar bilan hamkorlik, shaffoflik tamoyili, sheriklik modeli, ta'lim sifati.

Совершенствование системы сотрудничества с родителями в управлении организациями дошкольного образования

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы взаимодействия с родителями в управлении дошкольными образовательными организациями (ДОО) с теоретико-аналитической точки зрения. На основе анализа нормативно-правовых документов, зарубежного опыта и научной литературы оценено современное

состояние участия родителей в управлении ДОО и обоснованы научно-практические пути усиления сотрудничества. Научные исследования свидетельствуют о том, что системное вовлечение родителей в процесс управления способно существенно повысить качество образования. В статье на основе модели партнёрства Эпштейна и теории экологических систем Бронфенбреннера разработана четырёхкомпонентная модель взаимодействия (коммуникация, участие, влияние на решения, партнёрство) и представлены рекомендации по её практическому применению.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, управление, взаимодействие с родителями, принцип прозрачности, партнёрская модель, качество образования.

Improving the system of cooperation with parents in the management of preschool educational organizations

Annotation. This article examines issues related to improving the parent partnership system in the management of preschool educational organizations (PEO) from a theoretical-analytical perspective. Based on an analysis of regulatory documents, international experience, and scientific literature, the current state of parental involvement in PEO management is assessed and scientific-practical approaches to strengthening cooperation are substantiated. Existing research indicates that systematically engaging parents in the management process can significantly enhance educational quality. Drawing on Epstein's partnership model and Bronfenbrenner's ecological systems theory, the article develops a four-component partnership model (communication, participation, decision influence, partnership) and presents recommendations for its practical implementation.

Keywords: preschool educational organization, management, parent partnership, transparency principle, partnership model, educational quality.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlik masalasi bugungi kunda pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim paradigmasi ota-onalarni faqat xizmat oluvchi sifatida emas, balki ta'lim jarayonining to'laqonli ishtirokchisi va sherik sifatida ko'rishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmonida MTT boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ham ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab MTTlarda ota-onalar bilan hamkorlik tizimli emas: uchrashuvlar tartibsiz o'tkaziladi, ota-onalarning fikrini o'rganish mexanizmlari yo'lga qo'yilmagan, muassasa faoliyati haqidagi ma'lumot yetarli darajada uzatilmaydi. Ushbu maqolaning maqsadi MTT boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlik tizimining mavjud holatini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi: O'zbekistonda 2024-yilda MTT bilan qamrov 76 foizga yetgan bo'lsa-da (Davlat statistika qo'mitasi, 2024), boshqaruv sifatida ota-onalar bilan

hamkorlik tizimining zaifligiga oid muammolar davlat hujjatlarida ham qayd etilgan. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni zarur qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: MTT boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlikning to'rt komponentli modeli ishlab chiqilgan va uning amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari asoslab berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ota-onalar bilan hamkorlik masalasini xorijiy olimlar turli jihatlaridan o'rganishgan. J.Epstein ota-onalar bilan hamkorlikning olti turini ajratib ko'rsatgan: tarbiyalash, muloqot, ko'ngilli yordam, uyda ta'lim, qaror qabul qilishda ishtirok va jamoat bilan hamkorlik. Ushbu model MTT sharoitiga qo'llash imkoniyatlari ko'p tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otgan. U.Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasi MTT rahbari muassasani oila, mahalla va davlat bilan o'zaro aloqada boshqarishi zarurligini asoslaydi. Ota-ona bola rivojlanishining yaqin muhitini (mikrotizim) tashkil etuvchi eng muhim shaxs sifatida MTT boshqaruviga jalb etilishi lozim. Ushbu nazariya ishlab chiqilgan to'rt komponentli modelda bevosita o'z aksini topgan: "muloqot" komponenti mikrotizim (oil-MTT) o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi; "ishtirok" va "qarorga ta'sir" komponentlari mezotizim darajasida ota-onani muassasa hayotiga qo'shadi; "sheriklik" komponenti esa makrotizim (davlat ta'lim siyosati) bilan uyg'unlikni ta'minlaydi.

O'zbek olimlari orasida R.A.Mavlonova MTT boshqaruvini pedagoglar va ota-onalar faoliyatini uyg'unlashtiruvchi tizimli jarayon sifatida ta'riflagan. Sh.S.Sharipov esa ta'lim muassasasini boshqarishda demokratiya va oshkoralik tamoyillarini O'zbekiston sharoitiga moslab asoslagan. Ammo mazkur tadqiqotlarda ota-onalar bilan hamkorlikning tizimli modeli va uning amaliy o'lchov mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagan - bu ilmiy bo'shliqni mazkur maqola to'ldirishga intiladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish; O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini qiyosiy tahlil qilish; xorijiy tajribalarni (Finlandiya, Janubiy Koreya, Singapur) o'rganish va umumlashtirish; rasmiy statistik ma'lumotlarni tahlil qilish. Tadqiqot Farg'ona shahri MTTlari misolida olib borilgan bo'lib, nazariy-tahliliy xarakter kasb etadi. Tadqiqotning nazariy asosini J.Epsteinning hamkorlik modeli, U. Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasi va P.I. Tretyakovning natijaga asoslangan boshqaruv konsepsiyasi tashkil etadi. Amaliy asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-152-son Farmoni va Maktabgacha ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasiga tayanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekistondagi MTTlarda ota-onalar bilan hamkorlik asosan quyidagi shakllar bilan cheklanib qolmoqda: oylik yig'ilishlar (ko'pincha bir tomonlama ma'lumot berish formatida), bayramlar va tadbirlar, muammolar yuzaga kelganda individual uchrashuvlar. Shaffoflik tamoyilining to'liq joriy etilmasligi, ota-onalar fikrini o'rganish mexanizmlarining yo'qligi va raqamli aloqa kanallaridan foydalanilmaslik asosiy kamchiliklar sifatida aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-152-son Farmonida (2024) ham MTT boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilanishi ushbu muammoning davlat darajasida tan olinganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijasida MTT boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlikning to'rt komponentli modeli ishlab chiqildi (1-jadval). Ushbu model Epstein konsepsiyasi va O'zbekiston milliy sharoitining xususiyatlari asosida tuzilgan:

1-jadval.

MTT boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlikning to'rt komponentli modeli

Komponent	Mazmuni	Amalga oshirish shakli	O'lchov mezonlari
Muloqot	MTT faoliyati haqida muntazam xabardorlik	Oylik byulleten, messenjer guruh, elektron pochta	Ota-onalarning xabardorligi darajasi (so'rovnomalar)
Ishtirok	Ota-onalarni muassasa faoliyatiga jalb etish	Tadbirlar, ochiq darslar, ko'ngilli yordam	Tadbirlardagi ishtirok foizi
Qarorga ta'sir	Boshqaruv qarorlarini birgalikda qabul qilish	Kuzatuv kengashi, yillik so'rovnomalar	Ota-onalar takliflarining amalga oshirilish darajasi
Sheriklik	Uzoq muddatli hamkorlik va o'zaro mas'uliyat	Hamkorlik shartnomasi, rivojlanish portfeli	Qoniqish darajasi (yillik baholash)

Izoh. Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan (2025).

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ota-onalar bilan hamkorlik samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda bir qancha umumiy xususiyatlar mavjud (2-jadval).

2-jadval.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ota-onalar bilan hamkorlik

Mamlakat	Hamkorlik xususiyati	O'zbekiston uchun foydali jihati
Finlandiya	Ota-onalar bilan individual kelishuv asosida ta'lim rejasi tuziladi	Har bir bola uchun individual rivojlanish dasturini ota-ona bilan birgalikda ishlab chiqish
Janubiy Koreya	Raqamli platforma orqali ota-onalar kundalik hisobotni ko'rishi mumkin	MTTlarda elektron kundalik va raqamli portfolio tizimini joriy etish
Singapur	Yillik hamkorlik shartnomasi – ota-ona o'z majburiyatlarini oladi	Kuzatuv kengashida ota-ona vakili faol qatnashadi va oylik hisobot oladi

Manba: OECD ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (2025).

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu mamlakatlarning umumiy xususiyati - ota-onalar bilan hamkorlikni tizimli, majburiy va o'lchanadigan qilib belgilash. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish mumkin emas, biroq asosiy tamoyillarini milliy mentalitet va resurslarga moslashtirish samarali bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, MTT boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlik tizimini takomillashtirish uchun quyidagi mexanizmlarni joriy etish tavsiya etiladi:

- choraklik individual uchrashuvlar har bir bola rivojlanishi bo'yicha ota-ona bilan yakka suhbat o'tkazish;
- yillik so'rovnomalar ota-onalarning muassasa faoliyatidan qoniqish darajasini o'lchash va natijalarni ochiq e'lon qilish;
- raqamli aloqa kanallari messenjer guruhlari va elektron pochta orqali muntazam axborot yuborish;

- kuzatuv kengashining faollashtirish ota-onalar vakilining qaror qabul qilish jarayonida real ishtiroki;

- shaffoflik hisoboti MTT yillik hisobotini ota-onalarga taqdim etish va e'lon qilish.

Ushbu tadqiqot natijalari qator olimlarning xulosalari bilan uyg'un: R.A. Mavlonova ta'kidlaganidek, ota-onalar bilan hamkorlik tasodifiy harakatlar emas, balki tizimli jarayon sifatida amalga oshirilgandagina samarali bo'ladi. Tretyakovning natijaga asoslangan boshqaruv konsepsiyasida ham hamkorlik natijalarini o'lchanadigan ko'rsatkichlar asosida baholash zarurligiga urg'u beriladi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan to'rt komponentli model ushbu yondashuvlarni birlashtiradi va O'zbekiston MTTlari uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, MTT boshqaruvida ota-onalar bilan hamkorlik tizimini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'li hisoblanadi. Ikkinchidan, hamkorlikni tizimli, o'lchanadigan va shaffof qilish uchun to'rt komponentli model (muloqot, ishtirok, qarorga ta'sir, sheriklik) amaliyotga joriy etilishi lozim. Uchinchidan, xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirgan holda qo'llash, ayniqsa raqamli aloqa vositalarini joriy etish va kuzatuv kengashini faollashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari MTT rahbarlari va uslubchilari, shuningdek ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari uchun amaliy ahamiyatga ega. Modelning samaradorligini baholash uchun quyidagi o'lchanadigan mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi: yillik so'rovnomada ota-onalar qoniqish darajasi 75% dan yuqori bo'lishi; kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ota-onalar vakili ishtirokining 80% dan oshishi; ota-onalar takliflarining kamida 60% i amaliyotga kiritilishi. Kelgusida ushbu modelni keng ko'lamli empirik sinovdan o'tkazish va uning samaradorligini statistik jihatdan asoslash tadqiqotning mantiqiy davomi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-152-son Farmoni. 30.09.2024 y.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. PQ-4312-son. 08.05.2019 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni. 16.12.2019 y.
4. Mavlonova R.A., Qodirov B. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - T.: O'qituvchi, 2010. - 198-b.
5. Sharipov Sh.S. Pedagogik menejment. - T.: TDPU nashriyoti, 2018. - 178-b.
6. Tretyakov P.I. Maktabgacha ta'lim muassasasi: natijalarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish. - M.: UTs Perspektiva, 2010. - 158-b.
7. Toshpulatova Sh.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va boshqarish usullari. -T.: TDPU, 2001. - 94-b.
8. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships. -Boulder: Westview Press, 2001. - P. 408.
9. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. - Cambridge: Harvard University Press, 1979. - P. 330.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. -www.stat.uz. 2024.